



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

**B U Y R U G'I**

**O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasini  
tayinlash tartibini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoni bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi negizida Raqamli texnologiyalar vazirligi tashkil etilganligi munosabati bilan o'qishda, ilmiy izlanishlarda hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatlarga erishgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (keyingi o'rinnarda – TATU) va uning filiallari, Toshkent shahridagi Inha universiteti, Toshkent shahridagi Amiti universiteti, "IT-Park University" raqamli universitetining bakalavriat (kunduzgi va masofaviy) ta'lif yo'naliishlari bo'yicha 1-2-3-bosqichni tamomlagan talabalari hamda TATU va uning filiallari huzuridagi texnikumlar, TATU va uning filiallari qoshidagi akademik litseylarning o'quvchilariga O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi (keyingi o'rinnarda – Vazirlik stipendiyasi) tanlovida ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasini tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Axborot xizmati (Sh.Axmatov), Raqamli ta'limi rivojlantirish boshqarmasi (S.Butanov) Vazirlik stipendiyasini tayinlash tartibida belgilangan muddatlarda Vazirlik rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida Vazirlik stipendiyasi to'g'risida e'lon joylashtirish choralarini ko'rsin.

3. "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki Direksiyasi" MChJ (F.Ibragimov):

a) **bir hafta muddatda** "O'zbekistonning IT-iste'dodlari" ([it-istedod.uz](http://it-istedod.uz)) portalni orqali Vazirlik stipendiyasiga talabgor talaba va o'quvchilarning arizalarini qabul qilish bo'yicha texnik imkoniyatlarini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy etsin;

b) TATU (B.Maxkamov), Toshkent shahridagi Inha universiteti (M.Djalalov), Toshkent shahridagi Amiti universiteti (B.Abdullayev), "IT-Park University" raqamli universiteti (B.Ayupov):

Vazirlik stipendiyasi to‘g‘risidagi yangiliklarni ta’lim muassasalarining rasmiy veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirish;

Vazirlik stipendiyasini tayinlash tartibi bilan barcha talaba va o‘quvchilarni tanishtirish hamda ularga tegishli sharoitlar yaratish choralarini ko‘rsin.

4. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2020-yil 23-dekabrdagi 685-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari R. Karimjonov zimmasiga yuklansin.

**Vazir**



**Sh. Shermatov**

Raqamli texnologiyalar vazirligining  
2023-yil 28-fevraldag'i  
62-son buyrug'iga  
ILOVA

## O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasini tayinlash tartibi to'g'risida **NIZOM**

1. Mazkur Nizom Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-maydag'i 318-sod qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq soha ta'lim muassasalarining talaba va o'quvchilariga O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi (keyingi o'rnlarda – Vazirlik stipendiyasi)ni tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

2. Vazirlik stipendiyasi o'qishda, ilmiy izlanishlarda hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatlarga erishgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (keyingi o'rnlarda – TATU) va uning filiallari, Toshkent shahridagi Inha universiteti, Toshkent shahridagi Amiti universiteti, "IT-Park University" raqamli universiteti bakalavriat (kunduzgi va masofaviy) ta'lim yo'naliishlari bo'yicha 1-2-3-bosqichni tamomlagan talabalari hamda TATU va uning filiallari huzuridagi texnikumlar, TATU va uning filiallari qoshidagi akademik litseylarning o'quvchilari (keyingi o'rnlarda – Vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalarining talaba va o'quvchilari) uchun Vazirlik Tarmoq ilmiy-texnik kengashi qarori asosida Vazirlikning buyrug'iga muvofiq tayinlanadi.

3. Har o'quv yilida Vazirlik stipendiyasi kvotasi ta'lim muassasalari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

**TATUga – 10 ta;**

**TATU filiallarining har biriga 3 tadan;**

**Toshkent shahridagi Inha universitetiga – 5 ta;**

**Toshkent shahridagi Amiti universitetiga – 5 ta;**

**"IT-Park University" raqamli universiteti – 3 ta;**

TATU va uning filiallari huzuridagi texnikumlar hamda TATU va uning filiallari qoshidagi akademik litseylar (keyingi o'rnlarda – texnikum va litseylar)ning har biriga **1 tadan**.

4. Vazirlik stipendiyasi:

Vazirlik stipendiyasining **bir oylik miqdori** TATU va uning filiallari, Toshkent shahridagi Inha universiteti, Toshkent shahridagi Amiti universiteti hamda "IT-Park University" raqamli universiteti (keyingi o'rnlarda – Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari) talabalari uchun bazaviy hisoblash miqdorining **5,0 barobari**, texnikum va litseylarning o'quvchilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining **2,0 barobari** miqdorida belgilanadi.

Shuningdek, Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari talabalarining to‘lov-shartnomaga asosida belgilangan to‘lov miqdoridan sarhisob qilib berilishi mumkin.

5. Sovrindorlar Vazirlik tomonidan **sentabr-oktabr oylarida** tashkil etiladigan tadbirda Raqamli texnologiyalar vaziri tomonidan Vazirlik stipendiyasi sohibi ekanligini ko‘rsatuvchi maxsus sertifikat bilan taqdirlanadilar.

6. Vazirlik stipendiyalari xarajatlari Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

7. Vazirlik stipendiyasiga Vazirlik tizimidagi ta’lim muassasalarining talaba va o‘quvchilari talabgor bo‘lishlari mumkin. Shuningdek:

Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘quv yili yakuniga (ikkala semestr natijalariga) ko‘ra o‘rtacha o‘zlashtirish GPA bali, Vazirlik tizimidagi har bir oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun belgilangan eng yuqori GPA balining **76 foiz va undan yuqori**;

texnikum va litseylarning o‘quvchilari uchun o‘quv yili yakuniga (ikkala semestr natijalariga) ko‘ra, fanlardan olgan baholari “**a’lo**” va “**yaxshi**” bo‘lishi lozim.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari, shuningdek, Muhammad al-Xorazmiy stipendiyasi sovrindorlariga bir yilda Vazirlik stipendiyasi tayinlanishiga ruxsat berilmaydi.

Shuningdek, Vazirlik stipendiyasi sovrindorlari Vazirlik stipendiyasiga talabgor bo‘la olmaydilar.

9. Iqtidorli o‘quvchi va talabalar uchun saralash tanloving shaffofligi va ochiqligini ta’minlash maqsadida, Vazirlik stipendiyasiga talabgor bo‘lish onlayn tarzda amalga oshiriladi. Bunda talabgorlar tomonidan “O‘zbekistonning IT-iste’dodlari” (<https://it-istedod.uz/>) portali orqali barcha hujjatlar onlayn taqdim etiladi.

10. Vazirlik stipendiyasi to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar Vazirlik va tizimdagi ta’lim muassasalari veb-saytiga joylashtirilishi hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilishi lozim.

11. Tarkibi Vazirlik buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan Ishchi guruh iqtidorli talabalarni ajratib olish uchun talabgorlar hujjatlarini atroflicha o‘rganib chiqadi hamda belgilangan mezonlarga muvofiq Vazirlik stipendiyasi sovrindorlarini aniqlaydi.

12. Ishchi guruh:

Vazirlik markaziy apparati hamda tizimdagi korxona va tashkilotlar mutaxassislaridan iborat tarkibda tasdiqlanadi va jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yuritadi;

Vazirlik stipendiyasi talabgorlarining hujjatlarini o‘rganish va saralash bilan shug‘ullanadi;

talabgorlarning baholash natijalari ushbu nizomning 1 va 2-ilovalarida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi talabgorlarini baholash mezonlariga muvofiq aniqlanadi hamda zarur hollarda ular bilan yuzma-yuz yoki videokonferensiya usullarida suhbat o‘tkazadi;

Vazirlik stipendiyasini belgilash to‘g‘risidagi masalani muhokama qiladi, qaror qabul qiladi va qaror bayoni nusxasini Vazirlik buyrug‘ini qabul qilish uchun asos sifatida taqdim qiladi;

Ishchi guruhning qarori yakuniy hisoblanadi, appellatsiya qabul qilinmaydi.

Shuningdek, Vazirlik stipendiyasi talabgorlarining hujjatlarini o‘rganish va saralash mustaqil tashkilotlar tomonidan o‘tkazilishi mumkin.

13. Vazirlik stipendiyasi sovrindorlarini aniqlash talabgorlar orasidan eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan Vazirlik tizimidagi har bir ta’lim muassasasi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

14. Vazirlik stipendiyasini tayinlashga talabgorlar tegishliligi bo‘yicha mazkur nizomning 1 va 2-ilovalardagi talablar asosida onlayn tarzda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘rnatilgan tartibdagi o‘rtacha o‘zlashtirish GPA bali to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

texnikum va litseylarning o‘quvchilari uchun reyting (sinov) daftarchasi nusxasi;

ilmiy va innovatsion ishlari nusxalari, shuningdek, uning bevosita ishlab chiqish va yaratishda ishtirok etgan ishlanmalari hamda dasturlari;

ilmiy konferensiya va seminarlarda ishtirok etgan ma’ruza tezislari, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalari nusxasi;

xorijiy tilni bilish darajasidagi sertifikati hamda xalqaro IT-sertifikatining nusxasi;

mahalliy va xalqaro darajadagi hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtirokini tasdiqlovchi hujjatning, shuningdek, agar tanlovlarda sovrindor bo‘lgan bo‘lsa tegishli diplom (sertifikat)ning nusxasi;

o‘quvchilar uchun xalqaro yoki respublika fan olimpiadalarida ishtirok etganligi, shuningdek, ushbu fan olimpiadalarida sovrindor bo‘lgan bo‘lsa tegishli diplom (sertifikat)ning nusxasi;

talabgorning o‘ziga oid uning maqsadlari, shuningdek narsa va hodisalarga subyektiv fikrlari bayon etilgan erkin mavzuda esse;

ijtimoiy faolligi (ma’naviy-ma’rifiy hamda turli xil yoshlari tadbirlarida ishtiroki) bo‘yicha asoslovchi hujjatlarning nusxalari va boshqa qo‘sishma ma’lumotlar.

Vazirlik Ishchi guruhi zarur hollarda hujjatlarning asl nusxalarini taqdim qilishni talab etishga haqli.

15. Vazirlik stipendiyasiga onlayn ro‘yxatdan o‘tish va hujjatlarni qabul qilish hamda sovrindorlarni aniqlash Vazirlik tizimidagi ta’lim muassasalarida o‘quv yili yakunlangandan so‘ng **iyul-avgust oylarida** Ishchi guruh taklifiga ko‘ra Vazir tomonidan belgilanadi.

Vazirlik stipendiyasini tayinlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari, shuningdek, Muhammad al-Xorazmiy stipendiyasi sovrindorlari aniq bo‘lgandan so‘ng amalga oshiriladi.

16. Vazirlik stipendiyasi sovrindorlari Vazirlik buyrug‘i asosida tasdiqlanadi va bir o‘quv yili uchun tayinlanadi hamda Vazirlik tizimidagi ta’lim muassasalari tomonidan **oyma-oy** to‘lab boriladi.

Bir o‘quv yili mazkur tartibga ko‘ra, bir kalendar yilining sentabr oyidan boshlab, keyingi kalendar yilining iyun oyiga qadar **10 oy** deb belgilanadi.

17. Vazirlik stipendiyasi tayinlangan talaba va o‘quvchilar ta’lim muassasalari ilmiy, o‘quv (pedagogik) kengashlarining yig‘ilishida tantanali ravishda e’lon qilinadi.

Shuningdek, Vazirlik stipendiyasi sovrindorlari va ularning ishlanmalari, ilmiy-ijodiy ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Vazirlik hamda ta’lim muassasalari veb saytlarida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda keng yoritilib boriladi.

18. Vazirlik stipendiyasi sovrindorlariga o‘zları ta’lim olayotgan ta’lim muassasasidan malakali ustoz-murabbiylar (ilmiy rahbarlar) biriktiriladi va o‘quv yili so‘ngida o‘qish va ijtimoiy hayotdagi yutuqlari, amalga oshirgan ishlari to‘g‘risida ta’lim muassasasi tomonidan Vazirlikka hisobot taqdim qiladilar.

Vazirlik stipendiyasi sovrindorlariga biriktirilgan malakali ustoz-murabbiylar (ilmiy rahbarlar) o‘quv yili davomida erishgan ijobiy natijalariga ko‘ra Vazirlik tavsiyasiga asosan ta’lim muassasasi tomonidan bir martalik moddiy rag‘batlantirilishi mumkin.

19. Vazirlik stipendiyasi sovrindorlari grant asosida xorijga o‘qishga yuborilayotgan yoshlari guruhlari tarkibiga kiritilishda ustunlikka ega bo‘ladilar.

20. Vazirlik stipendiyasi tayinlangan talaba va o‘quvchilarga kundalik darslarni o‘zlashtirishda, o‘quv intizomi va odob-ahloq qoidalarini buzgan va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llangan holatlarda ta’lim muassasalari ilmiy, o‘quv (pedagogik) kengashlarining murojaatiga ko‘ra, Vazirlik tomonidan stipendiya berilishi to‘xtatilishi mumkin.

**Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari uchun Raqamli texnologiyalar vazirligi  
stipendiyasi talabgorlarini  
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1)	<b>Taqdim etilgan hujjatlar to‘liqligi va rasmiylashtirish sifati</b>	<b>5 ball</b>
2)	<b>Talabgorning so‘ngi ikki semestrda fanlardan olgan baholarining o‘rtacha miqdoriga ko‘ra</b>  agar talabgorning o‘rtacha GPA bali – 76-80 foiz bo‘lsa agar talabgorning o‘rtacha GPA bali – 81-85 foiz bo‘lsa agar talabgorning o‘rtacha GPA bali – 86-90 foiz bo‘lsa agar talabgorning o‘rtacha GPA bali – 91-100 foiz bo‘lsa	<b>20 ball</b>  5 ball 10 ball 15 ball 20 ball
3)	<b>Ilmiy-ijodiy va innovatsion ishlari</b>  axborot tizimi va resurslari yaratilishidagi ishtiroki beshta va undan ortiq bo‘lsa – 8 ball; uchtadan to‘rttagacha bo‘lsa – 6 ball; uchtadan kam bo‘lsa – 3 ball; mayjud bo‘lmasa – 0 ball.  talabgorlarning ilmiy jurnallardagi maqolalari beshta va undan ortiq bo‘lsa – 7 ball; uchtadan to‘rttagacha bo‘lsa – 5 ball; uchtadan kam bo‘lsa – 3 ball; mayjud bo‘lmasa – 0 ball.	<b>20 балл</b>  8 ball  7 ball
	mahalliy va xorijiy konferensiyalardagi tezislari beshta va undan ortiq bo‘lsa – 5 ball; beshtadan kam bo‘lsa – 3 ball; mayjud bo‘lmasa – 0 ball.	5 ball
4)	<b>Xorijiy tillarni bilish darajasi*</b>  agar talabgor B1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor B2 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor C1 va undan yuqori darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lmasa	<b>20 ball</b>  10 ball 15 ball 20 ball 0 ball
5)	<b>Xalqaro IT-sertifikat mavjudligi**</b>  agar talabgor boshlang‘ich darajadagi sertifikatga ega bo‘lsa agar talabgor o‘rtada darajadagi sertifikatga ega bo‘lsa agar talabgor professional darajadagi sertifikatga ega bo‘lsa agar talabgor xalqaro IT-sertifikatiga ega bo‘lmasa	<b>20 ball</b>  10 ball 15 ball 20 ball 0 ball
6)	<b>Mahalliy va xorijiy hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtiroki</b>  xalqaro darajadagi tanlovda sovrindor bo‘lsa – 10 ball; xalqaro darajada tanlovda ishtirok etsa – 5 ball; respublika darajadagi tanlovda sovrindor bo‘lsa – 7 ball; respublika darajadagi tanlovda ishtirok etsa – 3 ball; ishtirok etmagan bo‘lsa – 0 ball.	<b>10 ball</b>
7)	<b>Umumiy faoliyati</b>  talabgor tomonidan yozilgan esse Ijtimoiy faolligi (ma’naviy-ma’rifiy hamda turli xil yoshlar tadbirlarida ishtiroki)	<b>5 ball</b>  3 ball 2 ball
	<b>Jami</b>	<b>100 ball</b>

**Texnikum va litseylar uchun Raqamli texnologiyalar vazirligi  
 stipendiyasi talabgorlarini  
 BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1)	<b>Taqdim etilgan hujjatlar to‘liqligi va rasmiylashtirish sifati</b>	<b>5 ball</b>
2)	<b>Talabgorning so‘ngi ikki semestrda fanlardan olgan baholarining o‘rtacha miqdoriga ko‘ra</b>  agar talabgorning umumiylarining 50 foizdan kamida bo‘lsa agar talabgorning umumiylarining 50-74 foiziga bo‘lsa agar talabgorning umumiylarining 75-99 foiziga bo‘lsa agar talabgorning barcha baholari 5 foizdan kamida bo‘lsa	5 ball 10 ball 15 ball 20 ball
3)	<b>Xorijiy tillarni bilish darajasi*</b>  agar talabgor B1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor B2 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor C1 va undan yuqori darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lmasa	<b>20 ball</b> 10 ball 15 ball 20 ball 0 ball
4)	<b>Xalqaro IT-sertifikat mavjudligi**</b>  agar talabgor boshlang‘ich darajadagi sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor o‘rtalik professional darajadagi sertifikatiga ega bo‘lsa agar talabgor xalqaro IT-sertifikatiga ega bo‘lmasa	<b>20 ball</b> 15 ball 20 ball 0 ball
5)	<b>Fan olimpiyadalaridagi ishtiroki</b>  xalqaro darajadagi fan olimpiyadasida sovrindor bo‘lsa – 20 ball; xalqaro darajada fan olimpiyadasida ishtirok etsa – 10 ball; respublika darajadagi fan olimpiyadasida sovrindor bo‘lsa – 15 ball; respublika darajadagi fan olimpiyadasida ishtirok etsa – 8 ball; ishtirok etmagan bo‘lsa – 0 ball.	<b>20 ball</b>
6)	<b>Mahalliy va xorijiy hakaton yoki IT-tanlovlardagi ishtiroki</b>  xalqaro darajadagi tanlovda sovrindor bo‘lsa – 10 ball; xalqaro darajada tanlovda ishtirok etsa – 5 ball; respublika darajadagi tanlovda sovrindor bo‘lsa – 7 ball; respublika darajadagi tanlovda ishtirok etsa – 3 ball; ishtirok etmagan bo‘lsa – 0 ball.	<b>10 ball</b>
7)	<b>Umumiy faoliyati</b>  talabgor tomonidan yozilgan esse  Ijtimoiy faolligi (ma’naviy-ma’rifiy hamda turli xil yoshlar tadbirlarida ishtiroki)	<b>5 ball</b> 3 ball 2 ball
<b>Jami</b>		<b>100 ball</b>

Nizomning 1-2-ilovalarida belgilangan baholash mezonlariga Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tizimdagи ta’lim muassasalari takliflariga asosan o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

\* Mazkur mezon tegishli normativ huquqiy hujjat bilan tasdiqlangan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatiga muvofiq baholanadi.

\*\* Mazkur mezon Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan va it-istedod.uz portalida e’lon qilingan xalqaro IT-sertifikatlar ro‘yxatiga muvofiq baholanadi.